



01.07.2026-yildan kalendar yildagi mehnatga layoqatsizlik davrining 6-kunidan boshlab vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi orqali to'lanadi.

Batafsil ma'lumot: 1070

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

"TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION" HALQARO UNIVERSITETINI TASHKIL ETISH TO'G'RSIDA

Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish hamda ta'lim tizimiga jahonning ilg'or standartlari hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish uchun zarur bo'lgan oliy ma'lumotli pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, rivojlangan mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining Toshkent shahrida "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetini (keyingi o'rinlarda Universitet deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilansin:

Universitetda yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini joriy etish;

respublika iqtisodiyoti real sektorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakali oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash;

xorijning ilg'or oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida tajriba almashish dasturlarini amalga oshirish;

o'quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritib borish, innovatsion hamda ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish;

ta'lim jarayoniga yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining malakali professor-o'qituvchilari, olimlari va mutaxassislarini keng jalb qilish;

ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ilm-fan va texnikaning yangi yutuqlarini joriy etish;

professor-o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, shu jumladan, nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ularning stajirovkasini tashkil etish;

respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;

respublika oliy ta'lim tizimiga zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, ochiq axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishga ko'maklashish;

ta'lim va ilm-fanning uzluksizligi va izchilligi tamoyili, shuningdek, jahon ta'limi va ilmiy hamjamiyatga uyg'un integratsiyalashuvi asosida mutaxassis va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

ta'lim va ilmiy sohalarda xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan uzoq muddatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga, istisno tariqasida, Universitet faoliyatini yo'lga qo'yish uchun eng yaxshi shartlarni taklif etgan potensial investorni tanlash hamda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyat shartlarini belgilash huquqi berilsin.

Bunda:

a) potensial investorga Toshkent shahar, Yashnobod tumani, "G'alabaning 40 yilligi" 2-mavzesida joylashgan faoliyat ko'rsatmayotgan (qurilishi tugallanmagan) Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va malakasini oshirish instituti bino va inshootlari investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish sharti bilan "nol" xarid qiymatida berilsin;

b) potensial investorga kuyidagi investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar yuklansin:

o'z mablag'lari hisobidan Universitetning faoliyatini moliyalashtirish, obyektlarni rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, jihozlash va foydalanishga topshirish, shuningdek, ularga tegishli hududni obodonlashtirish;

Universitet tomonidan belgilangan qabul parametrlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkaması huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi buyurtmasiga ko'ra "The Times Higher Education World University Rankings" reytingidagi dunyoning 1000 talikka kiruvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturlari asosida imtiyozli grantlar ajratish yo'li bilan tegishli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshirish;

Universitetga berilayotgan obyektida ta'lim xizmatlari ko'rsatish yuzasidan faoliyatni amalga oshirish.

Oldingi tahrirga qarang.

v) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi potensial investor tanlangandan so'ng:

bir oy muddatda ushbu bandning "b" kichik bandida belgilangan shartlar asosida investor bilan obyektни "nol" xarid qiymatida sotish bo'yicha oldi-sotdi shartnomasi tuzilishini;

o'n kun muddatda obyektни topshirish-qabul qilish dalolatnomasi taqdim etilgandan keyin besh ish kuni mobaynida potensial investorga "tasarruf etish huquqisiz" belgisi bilan mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi berilishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga iltimosnoma yuborilishini;

potensial investor tomonidan qabul qilingan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi yuzasidan monitoring olib borilishini;

investitsiyaviy majburiyatlar to'liq bajarilgan deb e'tirof etilgan paytdan va penya (yuzaga kelgan taqdirda) to'liq hajmda to'langan kundan boshlab besh ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda belgilangan tartibda obyektни "tasarruf etish huquqi" belgisi kiritilishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga iltimosnoma yuborilishini ta'minlasin;

g) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Xalq ta'limi vazirligining iltimosnomasi asosida obyektни potensial investorga sotish bo'yicha vazirlik va potensial investor o'rtasida tuzilgan shartnoma va topshirish-qabul qilish dalolatnomasi taqdim etilgandan keyin besh ish kuni mobaynida potensial investorga "tasarruf etish huquqisiz" belgisi bilan mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderini, shuningdek, ushbu shartnoma bo'yicha potensial investor tomonidan investitsiyaviy majburiyatlar qabul qilinganligi to'g'risida bayonnoma va potensial investor tomonidan mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderining asli taqdim qilingan kundan boshlab besh ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda "tasarruf etish huquqi bilan" belgisi kiritilishini ta'minlasin;

d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulki obyektlarini xususilashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son [qarori](#), istisno tariqasida, mazkur qarorning bajarilishi doirasida tatbiq etilmasligi belgilansin.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi 243-son [qaroriga](#) asosan "v" "g" va "d" kichik bandlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 09/21/243/0388-son)

4. Belgilab qo'yilsinki:

Universitet mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi nodavlat oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi;

Universitetga o'quv-metodik rahbarlikni ta'minlash, faoliyati va o'quv jarayonini tashkil etish va yuritish, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, shuningdek o'qishga qabul qilish uchun kirish imtihonlarini o'tkazish va chet ellik yukori malakali mutaxassislarni jalb etish uchun xorijiy hamkor sifatida "The Times Higher Education World University Rankings" reytingidagi dunyoning 1000 talikka kiruvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarini belgilash va Universitet bazasida ularning filiallarini ochish huquqi berilsin;

Universitetda o'qitish O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari talablarini inobatga olgan holda, Universitet va uning xorijiy hamkori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

Universitetda kadrlar tayyorlash kunduzgi, sirtqi, kechki, maxsus sirtqi va masofaviy ta'lim shakllari bo'yicha o'zbek, ingliz hamda boshqa tillarda amalga oshiriladi;

Universitet bitiruvchilariga uning xorijiy hamkor universitetlarining O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim to'g'risidagi hujjati sifatida tan olinadigan xalqaro darajadagi yoki belgilangan namunadagi diplomi beriladi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qabul parametrlari Universitet tomonidan xorijiy hamkorlar bilan kelishilgan holda belgilanadi;

Universitetning magistratura ta'lim bosqichi bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining rahbar kadrlari zaxirasiga kiritiladi;

umumta'lim muassasalarida faoliyatini boshlagan Universitet bakalavriat bosqichi bitiruvchilariga to'g'ridan to'g'ri ikkinchi malaka toifasi, magistratura bitiruvchilariga birinchi malaka toifasi beriladi;

Universitetga belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasidan litsenziya olgandan so'ng ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat etiladi.

5. Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining grantlari;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

(5-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda Universitetning ta'sis hujjatlari ishlab chiqilishida va ular belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishida ko'maklashsin.

7. Toshkent shahar hokimligi Universitet hududida barpo etilayotgan kampusni tashqi muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasi bilan mahalliy budjet mablag'lari hisobiga ta'minlash choralari ko'rsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Universitetda ta'lim sifatini va qonunchilikka rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qilsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.A. Musayev, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Sh.X. Shermatov hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i U.N. Tashkenbayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 23-iyun,
404-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020-y., 09/20/404/0799-son; 28.04.2021-y., 09/21/243/0388-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

